



GEOGRAPHICAL NAMES ASSOCIATED WITH CARAVAN ROUTES (USING THE EXAMPLE OF THE JIZZAKH REGION)

K. M. Khakimov

Candidate of Geography

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Islombek Gaybullayev

Student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

Mashkhura Eshpulatova

Student

Jizzakh State Pedagogical University

Jizzakh, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: geographical name, toponym, toponymy, oikonym, caravan routes, historicity status, historical layer, naming motive.

Received: 26.03.25

Accepted: 28.03.25

Published: 30.03.25

Abstract: The article studies the geographical names associated with ancient caravan routes and preserved to this day in the toponymy of our country, which has historical status, using the example of the Jizzakh region. In addition, the history of the formation, evolution, and motives underlying the emergence of place names associated with ancient caravan routes were partially studied, and geographical names that appeared on ancient caravan routes in the region were analyzed. In order to further clarify the issue, some toponyms located on ancient caravan routes in the region were explained, and it became clear that such toponyms have been preserved to this day in their original form or with partial changes.

GEOGRAFIK NOMLARDA AKC ETGAN KARVON YO‘LLARI HAQIDA (JIZZAX VILOYATI MISOLIDA)

K. M. Xakimov

geografiya fanlari nomzodi

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O‘zbekiston

Islombek G'aybullayev

talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

Mashhura Eshpo'latova

talaba

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Jizzax, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: geografik nom, toponim, toponimiya, oykonim, karvon yo'llari, tarixiylik maqomi, tarixiy qatlam, nomlash motivi.

Annotatsiya: Maqolada tarixiy maqomga ega bo'lgan mamlakatimiz toponimiyasi tarkibida qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq va hozirgacha saqlanib qolgan geografik nomlar Jizzax viloyati misolida o'rganildi. Bundan tashqari, qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlarining shakllanish tarixi, evolyutsiyasi, paydo bo'lishiga asos bo'lgan motivlar qisman o'rganildi va viloyat hududida qadimiy karvon yo'llarida paydo bo'lgan geografik nomlar tahlil qilindi. Masalaga yanada oydinlik kiritish maqsadida viloyat hududidagi qadimiy karvon yo'llarida joylashgan ayrim oykonimlar izohlandi va ma'lum bo'ldiki bunday toponimlar hozirgacha asl holida yoki qisman o'zgarishlar bilan saqlanib qolingan.

**ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАЗВАНИЯ СВЯЗАННЫЕ С КАРАВАННЫМИ ПУТЯМИ
(НА ПРИМЕРЕ ДЖИЗАКСКОЙ ОБЛАСТИ)****К.М.Хакимов**

Кандидат географических наук

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Исламбек Гайбуллаев

студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

Маишура Эшпулатова

студент

Джизакский государственный педагогический университет

Джизак, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: географическое название, топоним, топонимия, ойконим, караванные пути, статус историчности, исторический слой, мотив именования.

Аннотация: В статье на примере Джизакской области изученно географические названия, связанные с древними караванными путями и сохранившиеся до наших дней в топонимии

нашей страны, имеющей исторический статус. Кроме того, частично анализированно история формирования, эволюции и мотивы появления топонимов, связанных с древними караванными путями, а также проанализированы некоторые географические названия, появившиеся на древних караванных путях региона. С целью дальнейшего прояснения вопроса были проведены топонимические исследования в данном регионе и выяснилось, что топонимы, расположенные на древних караванных путях региона, сохранились до наших дней в своем первоначальном виде или с частичными изменениями.

Kirish. Tarixiylik maqomiga ega bo'lgan nomlarda geografik obyektning ixcham o'tmishi mujassam. Ko'pincha, joy nomlarining shakllanishi jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy hayoti bilan bevosita bog'liq va ular yaratgan xalq milliy qadriyatlarning ajralmas tarkibiy qismi hisoblanadi. Qadimiy tarixga ega mamlakatimizning toponimiyasi tarkibida karvon yo'llari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlari ham uchraydi. Jizzax viloyati toponimiyasi ham bundan mustasno emas. Ular yordamida qadimiy karvon yo'llarini, o'sha hududda yashovchi yoki qachonlardir yashagan xalqlarning tili, urf-odatlari, milliy qadriyatlari va etnomadaniy belgilari kabi qimmatli ma'lumotlarni aniqlash mumkin. Binobarin, qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlarini o'rganish va toponimik tadqiqotlar yordamida ularni ilmiy etimologiyasini aniqlash muhim ahamiyatga ega. Qadimiy karvon yo'llaridan darak beruvchi bunday toponimlar viloyat hududida hozirgacha asl holida yoki qisman o'zgarishlar bilan saqlanib qolingan.

Ishning maqsadi va vazifalari. Tadqiqot ishining asosiy maqsadi qadimiy tarixga ega mamlakatimizning toponimiyasi tarkibida karvon yo'llari bilan bog'liq bo'lgan joy nomlarini Jizzax viloyati misolida tarixiy manbalar va ilmiy adabiyotlar yordamida qiyosiy tahlil qilishdan iborat. Belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalarni bajarish nazarda tutilgan: 1) geografik nomlarda aks etgan qadimgi karvon yo'llarini ilmiy va tarixiy manbalar yordamida qiyosiy tahlil qilinadi; 2) qadimiy karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlarining shakllanish tarixi, evolyutsiyasi, paydo bo'lishiga asos bo'lgan motivlar o'rganiladi; 3) Jizzax viloyati hududida qadimiy karvon yo'llarida paydo bo'lgan geografik nomlar tahlil qilinadi. Tadqiqot ishida geografik taqqoslash, lingvistik va etimologik tahlil, tarixiy qiyoslash, tizimlashtirish kabi metodlaridan foydalanildi.

Asosiy natijalar va ularning muhokamasi. Qadimgi yunon faylasufi Aflotun nomlar ma'no-mazmunini to'g'ri tushunish va ta'riflash naqadar muhimligini nazarda tutib shunday yozgan: «kim nom ma'nosini yaxshi anglasa u joyni ham yaxshi biladi». Darhaqiqat, har bir

geografik nomning o'ziga xos «yuk»i bor, zero unda aniq ma'noga ega bo'lgan turlicha tarixiy, lisoniy, geografik ma'lumotlar mujassam, shu sababdan toponimga tarixiylik nuqtai nazardan to'g'ri yondoshib, uning hamma tarkibiy qismlari to'g'ri tahlil qilinsagina izoh ishonarli bo'ladi.

Taniqli toponimist olim, professor H.Hasanov «joy nomlariga qarab qadimiy savdo yo'llari, etnik guruhlarining tarqalish areali, qal'a va manzillarning o'rinlari, suv va dovonlarning xosiyatlari, foydali qazilmalar, cho'llarda quduqlar bor-yo'qligi, joyning iqlimiy xususiyatlari, hunar-kasb turlari, tarixiy voqealar va boshqa xil ma'lumotlarni bilib olish mumkin, bularning hammasi xalq xo'jaligi, madaniyatimiz tarixi uchun juda muhimdir» deb ta'kidlagan. Shunday ekan, geografik nomlarning ko'pgina fazilatlarini qatoriga ular yordamida qadimiy karvon yo'llarini aniqlash imkoni borligini ham kiritish mumkin.

Jizzax shahrining Buyuk ipak yo'lidagi iqtisodiy, harbiy strategik o'rni shundan iborat bo'lganki, shahardan keyin karvon yo'llari suv nisbatan tanqis bo'lgan Mirzacho'l orqali o'tgan. Mutaxassislarning yozishicha, Jizzaxdan keyin karvon yo'li uch yo'nalishga ajralgan. Birinchi yo'nalish, Jizzax - Ravot - Zomin - Sabot - Shahrison (O'ratepa, hozirgi Istaravshan shahri) - Asht dashti orqali Farg'ona vodiysiga, so'ng O'sh orqali Xitoyga yo'nalgan. Ikkinchi yo'nalish, Jizzax - Qoratepa (Dashtobod) - Xovos - Xo'jand - Farg'ona vodiysi va yana O'sh orqali Xitoyga ketgan. Uchinchi yo'nalish qisqa, yaqinrog'u lekin ichimlik suvi tanqis bo'lgan Mirzacho'lni kesib o'tgan, ya'ni Jizzax - Sardoba - Mirzarabot - Yakkasardoba - Sirdaryo kechuvi, Toshkent vohasi va Yettisuv - Turfon orqali Xitoyga borgan.

Tadqiqotlar natijasida Jizzax vohasining g'arbiy sarhadlari bo'ylab yana bir karvon yo'li aniqlangan. Bu yo'l orqali karvonlar Buxoro - Nurota orqali Forish tumaniga, uning markazi Bog'donga, undan keskin shimolga burilib, Xonbandi suv ombori, Kaltepa karvon saroyi orqali Sirdaryo kechuvidan o'tib, hozirgi Qozog'iston hududlariga, u yerdan O'tror, Yettisuv, Turfon bo'ylab Xitoyga ketgan.

Mutaxassislarning ta'kidlashicha, Jizzaxning qulay geografik o'rni o'rta asrlarda Mo'g'uliston, Xitoy va Sharqiy Turkistonni Bag'dod, Hamadon, Nishopur, Marv, Buxoro, Samarqand, Shosh, Tarozi bilan bog'laydigan karvon yo'llarining bir tarmog'i ushbu hududdan o'tishida muhim ahamiyat kasb etgan. Shu sababdan, viloyat toponimiyasi tarkibida bevosita karvon yo'llari bilan bog'liq joy nomlari ko'p uchraydi, ular qatoriga Xayrobod, Ravot, Yom, Bekat, Sardoba, Savot, Sarbozor, Ko'hnabozor, Bozorjoy, Chimqo'rg'on, Qarovultepa, Qaliya, Jo'langar kabi aholi punktlari nomlarini kiritish mumkin.

Qadimiy karvon yo'llaridan darak beruvchi bunday toponimlar hozirgacha asl holida yoki qisman o'zgarishlar bilan saqlanib qolgan. Masalaga yanada oydinlik kiritish maqsadida viloyat hududidagi qadimiy karvon yo'llarida joylashgan ayrim oykonimlarni sharhlash lozim, deb hisobladik. Ma'lumki, oykonimlar barcha toponimlar orasida tarixiy va lisoniy jihatdan eng

qimmatli yodgorliklar bo'lganligi sababli, tarixiy manbalarda ular ko'proq qayd etilgan. Masalan, ana shunday nomi bevosita karvon yo'llari bilan bog'liq aholi punktlaridan biri viloyatning Yangiobod tumanidagi Savot qishlog'idir.

Akademik A.R.Muhammadjonov shunday yozadi, shu joydan, ya'ni Ustrushonaning Sebat rustoqidan Buyuk Ipak yo'li uch tarmoqqa (Shosh, Farg'ona, Ustrushona) bo'linib ketgan. Ushbu yo'nalishlarning har birida bittadan rabot-karvonsaroilar mavjud bo'lgan va Sebat (se - uch, bat - rabotning qisqargan shakli) uch rabot ma'nosini ifodalaydi. O'rta asr arab geograflari Muqaddasiy, Ibn Havqal, Istaxriy asarlarida ham qishloq to'g'risida ma'lumotlar bor va uni katta karvon yo'li ustida joylashganligi ta'kidlangan. Qulay geografik o'rniga ega bo'lgan Sebatda o'rta asrlarda Ustrushonadagi yagona mashhur yopiq bozor (tim) ham bo'lgan.

Zomin tumani hududidan ham qadimiy karvon yo'llarining bir shoxobchasi o'tganligi tarixiy manbalarda qayd qilingan. Hozirda O'rtaqishloq deb ataladigan aholi punkting qadimgi nomi - Xumko'mdi. Xum - suyuqlik, don va boshqa mahsulotlarni solib qo'yish uchun xumdonda pishirilgan katta sopol idish. Qadimiy karvon yo'li yoqasida joylashgan qishloqni Xumko'mdi deb atalishiga sabab, mahalliy aholi karvonlar uchun ichimlik suvini muzdek saqlash maqsadida xumlarga (xum - sopoldan yasalgan katta ko'za) toza suv solib ko'mib qo'ygani sabab bo'lgan deyishadi.

Keyingi yillarda olib borilgan arxeologik izlanishlar tufayli Nurota tizmasining shimoliy etagidan Mirzacho'l orqali karvon yo'llari o'tganligi va ularning atrofidagi aholi manzilgohlarida ravot-karvonsaroilar, sardobalar qurilganligi isbot qilingan. Xorazm va Buxorodan kelib Shosh va Farg'onaga tomon boradigan karvonlar uchun eng qisqa yo'l Qizilqumning janubiy sarhadlari bilan Nurota tog'larining shimoliy etagi oralig'ida, ya'ni hozirgi Forish tumani hududidan o'tadigan karvon yo'li bo'lgan. Mirzacho'l orqali o'tadigan bu karvon yo'li nihoyatda quruq, suvsiz bo'lishiga qaramay, yo'li qisqa bo'lganligi tufayli o'rta asrlarda serqatnov hisoblangan.

Mutaxassislarining aniqlashicha, hozirgi Forish tumanining Kaltepa degan joyida karvonsaroy va sardoba bo'lgan. Ular Mirzacho'l orqali harakat qiladigan karvonlar uchun dam olib suv va oziq-ovqat g'amlash imkonini bergan. Karvon yo'li Chimqo'rg'onda ikkiga bo'lingan, biri Sangzor (Qili) daryosi yoqalab janubi-sharqqa Jizzaxga, ikkinchisi shimoli-sharqqa qarab Toshkentga borgan. Mirzacho'l orqali Toshkentga boradigan bu karvon yo'lida bir necha sardobalar qurilgan. Ayrim sardobalar buzilib ketgan, xarobasi qolgan. Ulardan faqat bittasi hozirgi Sirdaryo viloyatning Sardoba tumani hududida saqlangan.

Sardoba - suvi kam joylarda suvning ko'p bug'lanib ketishiga va ifloslanishiga yo'l qo'ymaslik uchun g'ishtdan maxsus qurilgan gidrotexnik inshoot. Sardobalar ko'pincha qadimiy karvon yo'llarida qurilgan. Usti gumbazsimon qilib yopilgan, tagiga tosh terilgan, o'rtasida suv yerga shimilib ketasligi uchun ba'zilarini tagiga g'isht yotqizilgan hovuzi bo'lgan. Sardoba

gumbazida uch tomondan ventilyatsiya darchasi, yomg'ir suvini to'plash uchun ustida mo'risi va suvdan foydalanish uchun odam kirib chiqadigan eshigi bo'lgan. Sardobalarning suvi tiniq va chuchuk bo'lib, uzoq muddat ichishga yaroqli bo'lgan. M.E.Masson ba'zi bir sardobalarning suvi uch yilgacha ichishga yaroqli bo'lganligini aytadi. Sardoba so'zi fors-tojik tilida sard -"sovuq, muzdek", ob -"suv" ma'nosini bildiradi.

Viloyat toponimiyasi tarkibidagi Sarbozor, Bozorjoy, Ko'hnabozor kabi aholi punktlari nomlari ham bevosita karvon yo'llarida tashkil etilgan karvon savdosi, bozorlar bilan bog'liq. Masalan, Forish tumanida Ko'hnabozor nomli oykonim mavjud. Mutaxassislar fikricha, o'rta asrlarda hozirgi qishloq hududida katta bozor bo'lgan, unda chorva va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlari, hunarmandchilik buyumlari ko'tarasiga sotilgan hamda qo'shni mamlakatlardagi narx-navoni bilish mumkin bo'lgan. Bozorga qo'shni mamlakatlardan ham (Afg'oniston, Xitoy, Eron) savdogarlar kelib turgan.

Hozirda viloyatning Zarbdor, Forish, G'allaorol va Jizzax tumanlari hududida Ravot nomli qishloqlar bor. Aslida Rabot toponimi O'zbekiston hududida avvalari ko'p bo'lgan, hozir ham kam emas. Masalan, Chor Rossiyasining harbiy olimi N.F.Sitnyakovskiyning 1899 yilgi «Ro'yxat»ida Zarafshon vodiysining faqat Buxoro qismida Balandrabot, Beshrabot, Yettirabot, Jarrabot, Deganrabot, Kaltarabot, Kattarabot, Oltirabot, Oqrabot, Toshirabot, Changrabot, Chorrabot, Chuqurrabot, Qo'tirrabot, Qo'shrabot, Rabot, Rabotio'zbek, Rabotimulla, Raboti Yusuf, Navrabot, Yangirabot kabi 160 dan ortiq qishloq, bundan tashqari, shu qishloqlar nomi bilan atalgan bir necha o'n ariq qayd qilingan.

Bu geografik termin O'rta Osiyo, Eron va Afg'oniston hududida ham keng tarqalgan, chunki o'rta asrlarda karvon yo'llari yoqasida qurilgan va karvon to'xtab o'tadigan joy, mehmonxona ravot deb atalgan. Ayrim tarixiy manbalarda Ravot - o'rta asrlarda arablarning mustahkamlangan qarorgohi, dastlab (islom dini tarqala boshlagan davrda) g'oziylarga mo'ljallab qurilgan maxsus bino bo'lgan degan fikr ham mavjud.

Aslida mutaxassislar orasida Movarounnahrda ravotlar aynan arablar tamonidan barpo etilganligi to'g'risida yagona fikr yo'q. Bizningcha, ravotlar arablar istilosidan oldin ham karvon yo'llari yoqasida qurilgan va karvon to'xtab, tunab o'tadigan joy sifatida xizmat qilgan, keyinchalik islom dini tarqala boshlagan davrda arablar undan qarorgoh sifatida foydalangan bo'lishi mumkin.

Xulosa. Karvon yo'llari bilan bog'liq geografik nomlarining paydo bo'lishi va nomlashga asos bo'lgan motivlar, nomshunos olimlarning asarlari hamda ayrim ilmiy va tarixiy manbalar yordamida tahlil qilindi va quyidagi xulosalarni bayon qilishga asos bo'ldi:

1). bebaho ma'naviy meros sifatida yoshlarni yetuk, barkamol va vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda joy nomlari ham muhim tarixiy manba hisoblanadi.

2). oʻtmishning maʼnoli guvohlari boʻlgan geografik nomlarga hududiylik va tarixiylik xos. Ular tarixiy yodgorliklar orasida alohida davrlarning tirik sadosi sifatida bebaho xazinadir.

3). har bir davr ishlab chiqarish tarzi, xoʻjalik faoliyati va boshqa siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy omillarga tayanib nomlar majmuini yaratgan va ularda jamiyati taraqqiyotidagi davr ruhi, xalqning turmushi va madaniyati bilan bogʻliq turli xil tarixiy voqea-hodisalar muhrlanib qoladi.

4) qadimiy karvon yoʻllari bilan bogʻliq geografik nomlar Jizzax viloyati toponimiyasi tarkibida ham hozirgacha saqlanib qolganligi aniqlandi. Ularning shakllanish tarixi, evolyutsiyasi hamda paydo boʻlishiga asos boʻlgan motivlarni oʻrganish qadimiy karvon yoʻllarini aniqlashga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Массон М.Е. Проблема изучения цистерн-сардоба. -Т.; 1935.
2. Муҳаммаджонов А.Р. Работ атамаси этимологияси.-Т.; 1995.
3. Миракмалов М.Т. Географияда топонимика. -Т.; 2011. -81 -б.
4. Мурзаев Э.М. География в названиях. -М.; 1995. -225 -стр. 220
5. Оға Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. -Т.; 2006. -92 -б.
6. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. -Т.: 2005. -238 -б.
7. Ҳакимов Қ.М. Жиззах вилояти топонимлари. -Жиззах.; 2014. -204 -б.
8. Ҳайдаров Ҳ. Жиззах вилояти тарихи. -Т.; 1997.
9. Ҳасанов Ҳ. Танланган асарлар. -Т.; 2019. -335 -б.
10. Hakimov Q.M. Mirakmalov M.T.; Toponimika. -Т.; “Tafakkur avlodi”, 2020.-368 -b.